
HALQARO QIZLAR KUNI KENG NISHONLANDI

BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasiga asosan "12 oktyabr - Xalqaro qizlar kuni" deb e'lon qilingan. Bu kun har yili butun dunyo bo'ylab katta tantana bilan nishonlanmoqda.

Bugun Farg'ona shahridagi "Kimyogarlar" madaniyat markazining yozgi amfiteatrida 12 oktyabr - "Xalqaro qizlar kuni" munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi. Tadbirni Farg'ona shahar hokimi o'rinbosari Dilshoda Xolmatova ochib, bayram ishtirokchilari bo'lgan qizlarni samimiy muborakbod etdi.

Tadbir davomida qizlarga kelgusidagi o'qish va ishlariga omadlar tilandi hamda 1-bolalar va o'smirlar maktabining sportchi yigitlari tomonidan barcha qizlar uchun gullar taqdim etildi.

Shuningdek, tadbirda FarDU filologiya fanlari professori, shoir Siddiq Mo'min ham ishtirok etib, "Singlisi yo'q akalar" she'ri bilan dillarni xushnud etdi. Tadbir davomida dilga yaqin kuy-qo'shiqlar, go'zal taronalar va raqslar barchaga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-12 22:27:54